

INKLYUZIV TA'LIMDA MUSIQIY FAOLIYAT ORQALI IJTIMOIIY MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISH

Xakimjonova Go'zal Abdunabi qizi

O'zMPU talabasi

Annotatsiya: Maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida musiqa darslarining o'rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan yoritib beriladi. Musiqa ta'limining alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning psixologik, emotsional, ijtimoiy hamda ijodiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil qilindi. Musiqa terapiyasining imkoniyatlari, maxsus ehtiyojli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni va inklyuziv musiqa darslarini tashkil etishning samarali usullari haqida so'z boradi. Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa orqali bolalarni jamiyatga moslashtirish, ularda o'ziga ishonch, hamkorlik va estetik didni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, musiqa ta'limi, musiqa terapiyasi, pedagogik yondashuv, korreksion pedagogika, musiqiy faoliyat, kommunikativ ko'nikma, psixologik rivojlanish.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Хакимжонова Гузал Абдунаби кизи

студентка УНПУ

Аннотация: В статье освещается роль и значение уроков музыки в процессе инклюзивного образования с научно-педагогической точки зрения. Проанализировано положительное влияние музыкального образования на психологическое, эмоциональное, социальное и творческое развитие детей с особыми образовательными потребностями. Обсуждаются возможности музыкальной терапии, ее роль в формировании коммуникативных навыков у детей с особыми потребностями и эффективные методы организации инклюзивных уроков музыки. В инклюзивной образовательной среде особое внимание уделяется вопросам адаптации детей к обществу посредством музыки, развитию у них уверенности в себе, сотрудничества и эстетического вкуса.

Ключевые слова: инклюзивное образование, музыкальное образование, музыкальная терапия, педагогический подход, коррекционная педагогика, музыкальная деятельность, коммуникативные навыки, психологическое развитие.

DEVELOPMENT OF SOCIAL ADAPTATION THROUGH MUSICAL ACTIVITIES IN INCLUSIVE EDUCATION

Khakimjonova Gozal Abdunabi qizi

Student of NPUU

Annotation: *The article sheds light on the role and importance of music lessons in the process of inclusive education from a scientific and pedagogical perspective. The positive impact of music education on the psychological, emotional, social and creative development of children with special educational needs was analyzed. The possibilities of music therapy, its role in the formation of communicative skills in children with special needs, and effective methods of organizing inclusive music lessons are discussed. In an inclusive educational environment, special attention is paid to the issues of adapting children to society through music, developing self-confidence, cooperation and aesthetic taste in them.*

Keywords: *inclusive education, music education, music therapy, pedagogical approach, correctional pedagogy, musical activity, communicative skills, psychological development.*

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari —tenglik, individual yondashuv, bag'rikenglik va hamkorlik —bolalarning ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida ichki kechinmalarni ifodalash suhbatga nisbatan osonroq kechadi, bu esa terapiya jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, musiqahis-tuyg'ularni faollashtirib, ongli idrok etishni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi hamda o'z-o'zini nazorat qilish va fikrlarni tartibga solish

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Inklyuziv musiqa darslari bolalarning ijtimoiy va emotsional farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Musiqa orqali ular stressni kamaytiradi, o'zini ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, darslarda amalga oshiriladigan guruh loyihalari, duetlar yoki kichik jamoadagi ijro mashg'ulotlari bolalarda mas'uliyat hissini, jamoada ishlash ko'nikmalarini va kommunikativ qobiliyatlarni oshiradi. Nogironligi bo'lgan bolalarda musiqa terapiya vazifasini ham bajaradi. Chunki sokin kuylar bolaning ruhiyatini tinchlantirsa, quvnoq kuylar ularga kayfiyat va energiya beradi. Ba'zi bolalar oddiy gapirishda qiynalishi mumkin, lekin musiqa orqali o'z his-tuyg'ularini bimalol ifoda etadi.

Musiqa terapiyasi-tanadagi va ruhiy kasalliklardan aziyat chekadigan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o'qitish va tarbiyalashda musiqa ta'siri yordamidan foydalanib musiqani his-tuyg'u bilan idrok etishga asoslangan psixoterapiya usuli. Musiqa terapiyasi - ko'pchilik insonlar o'zlaridagi psixologik zo'riqishni bartaraf etishda, tinchlanish va fikrlarini jamlashda, hissiy holatlarini yaxshilashda qo'llaydigan qadimiy va tabiiy usuldir. Ko'pchilik insonlar o'zlaridagi psixologik zo'riqishni bartaraf etishda, tinchlanish va fikrlarini jamlashda, hissiy holatlarini yaxshilashda qo'llaydigan qadimiy va tabiiy usuldir. Inklyuziv ta'limda bolalar bilan musiqa asarlari va musiqa asboblardan foydalangan holda faoliyat tashkil etish mumkin. Bu jarayonda klassik musiqa asarlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tinglash uchun quyidagi asarlarni tanlash mumkin: Bax, List, Shopen, Raxmaninov, Betxoven, Motsart, Chaykovskiy, Shubert va boshqalar. Anglarni hirgoyi qilishda va qo'shiq kuylashda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy faoliyat texnologiyasi sifatida Imkoniyati cheklangan bolalarda musiqa terapiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat: Inklyuziv ta'limda bolalar bilan ijtimoiy faoliyat texnologiyasi sifatida musiqa terapiyasining afzalliklari quyidagilardir: mutlaq bezararlik, qo'llashning yengil va qulayligi, nazorat qilish imkoniyati, ko'p vaqt va bosim talab etuvchi boshqa davolovchi usullardan foydalanish zaruratini kamaytirish imkoniyati.

Inklyuziv ta'lim jarayonida san'at fanlari, ayniqsa musiqa alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida musiqa faoliyatini to'g'ri tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar bilan musiqa asarlari hamda turli musiqa asboblardan foydalanish orqali samarali pedagogik va terapevtik muhit yaratish mumkin. Inklyuziv ta'limda musiqa terapiyasining bir qator ijobiy jihatlari mavjud. Avvalo, u jarayon ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonch va tushunishni mustahkamlaydi. Musiqa yordamida ichki kechinmalarni ifodalash suhbatga nisbatan osonroq kechadi, bu esa terapiya jarayonini tezlashtiradi. inklyuziv musiqa darslari bolalarning ijtimoiy va emotsional farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda o'qiyotgan bolalarning imkoniyatlari har xil bo'ladi. Kimdir tez o'rganadi, kimdir esa ko'proq vaqtda. Shunday paytda musiqa o'qituvchisining vazifasi faqat qo'shiq o'rgatish emas, balki har bir bolaning qalbiga yaqin yo'l topishdir. Musiqa orqali bolalar o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi, sahnaga chiqishga, odamlar bilan muloqot qilishga va o'ziga ishonishga o'rganadi. Musiqa orqali ular stressni kamaytiradi, o'zini ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ijodiy fikrlash qobiliyatini

rivojlantiradi. Shu bilan birga, darslarda amalga oshiriladigan guruh loyihalari, duetlar yoki kichik jamoadagi ijro mashg'ulotlari bolalarda mas'uliyat hissini, jamoada ishlash ko'nikmalarini va kommunikativ qobiliyatlarni oshiradi. Davolash va rivojlantirish jarayonini qanchalik erta boshlash muvaffaqiyat ehtimolini shunchalik oshiradi. Shu sababli imkoniyati cheklangan bolalar bilan musiqa terapiyasini erta yoshdan yo'lga qo'yish muhimdir. Ikki yoshli bolalarda tashqi olam haqidagi tasavvurlar hali to'liq shakllanmagan, nutq rivoji sust, eshitish va vizual idrok zaif, harakatlar muvofiqlashtirilmagan bo'lishi mumkin. Ilmiy va metodik adabiyotlarda nogiron o'quvchilarni korreksiya qilish va ijtimoiylashtirish uchun musiqa darslarining ahamiyati bir necha bor ta'kidlangan. V.P. Anisimov musiqa darslarini nafaqat o'z-o'zidan maqsad sifatida, balki ortda qolgan aqliy funktsiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida ham ko'rib chiqish g'oyasini ilgari surdi. U psixomotsional nogiron o'quvchilar uchun ta'lim dasturlarining yo'nalishi va tuzilishini aniqlashga imkon beradigan psixodagnostik usullarni taklif qildi. To'g'ri tashkil etilganda, musiqa darslari ortda qolgan aqliy funktsiyalarni normallashtirishga, motor qobiliyatlarini yaxshilashga, xotira va hissiy rivojlanishni rivojlantirishga sezilarli darajada yordam beradi. Darslar hissiy so'z boyligini, ritm tuyg'usini, ijodiy tasavvurni, harakat koordinatsiyasini rivojlantirish va bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, eshitish diqqatini rivojlantirish va tovushlarga nisbatan differentsial munosabatni rivojlantirish kabi vazifalarni o'z ichiga olishi kerak. Inklyuziv ta'limda musiqa darslari bolalarning shaxsiy, ijtimoiy, emotsional va ijodiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ushbu darslar nafaqat musiqiy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki bolalarning estetik didini rivojlantiradi, san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ijodiy salohiyatini rag'batlantiradi. Ta'lim jarayonidagi musiqiy materilallar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Repertuar har bir o'quvchining qobiliyatini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak. Asarlar, romanslar va qo'shiqlar qisqa, esda qolarli kuylar va matnlarga ega va tushunarli murakkablikka ega bo'lishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, repertuarni noto'g'ri tanlash o'quvchilarning musiqa o'rganishga qiziqishini yo'qotishiga va oxir-oqibat darslardan chetda qolishiga olib kelishi mumkin. Inklyuziv makonda maxsus ehtiyojli va sog'lom bolalarning birgalikdagi faoliyati ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash, hamkorlik, empatiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, musiqa darslari o'quvchilarga o'z hissiyotlarini ifodalash, guruhda o'z o'rnini topish va ijodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi, bu esa ularning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy va nutqda kechikishlarga ega o'quvchilar uchun musiqa ta'limi odatiy rivojlanishi bo'lgan tengdoshlarinikidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Asosiy farq ta'limning maqsad va vazifalarida. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda asosiy maqsad ularning rivojlanishini musiqiy san'at yordamida tuzatishdir. Bu kontekstda samarali musiqa ta'limi faqat musiqa pedagogikasi va maxsus ta'lim yondashuvlarining sintezi orqali mumkin. Aqliy va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga dars berishda, ular uchun musiqa ta'limining asosiy maqsadi fikrlashni rivojlantirish, psixomotor ko'nikmalarni yaxshilash, estetik his-tuyg'ular va hissiyotlarni rivojlantirish ekanligini yodda tutish muhimdir. Qo'shiq aytishni va musiqa asboblariida chalishni

o'rganayotganda, bolalar o'zlarining cheklovlarini yengib, qiyin vazifalarni bajarishga intilishadi. O'qituvchilar sabrli bo'lishlari va har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olgan holda darslar davomida xotirjam ohangdan foydalanishlari kerak. Nogiron bolalar musiqiy matn bilan ishlashning barcha jihatlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Xulosa.

Inklyuziv ta'lim tizimida musiqa darslari nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Musiqa orqali alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ichki dunyosini anglash, ularning hissiy holatini barqarorlashtirish hamda jamiyatga moslashuv jarayonini yengillashtirish mumkin. Ayniqsa, musiqa terapiyasi bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ijodiy fikrlashga undaydi. Musiqa til tanlamaydi, imkoniyat tanlamaydi. U barcha bolani teng his qilishiga yordam beradi. Inklyuziv musiqa darslari sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Dars davomida birgalikda kuylash yoki cholg'u chalish bolalar orasida do'stlikni kuchaytiradi. Eng muhimi, ular "men ham qila olaman" degan ishonchni his qiladi. Musiqa bolalarning nafaqat estetik didini, balki qalbini, dunyoqarashini va hayotga bo'lgan mehrini ham tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova F.U., Pulatova D.A. "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" darslik. – 2022.
2. Ashirova Laziza, Nuraliyeva Zuhra Anvarovna. "Inklyuziv ta'lim va musiqa" // Modern Education and Development Journal.
3. Axmadjonova Mashrabxon Raximjon qizi. "Inklyuziv ta'limda musiqa darslarining o'ziga xosligi" // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». – Декабрь, 2025.
4. Абрамова П.И. "Особенности инклюзивного музыкального воспитания детей с ограниченными возможностями здоровья".
5. Talaboyev Azizjon Nabijonovich. "Inklyuziv ta'limda musiqa terapiyadan foydalanish va uning ahamiyati" // Oriental Art and Culture Scientific-Methodical Journal. – June, 2022.